


SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 326,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 247,5 mln. AQSh dollariga yoki 15,7 %ga kamaydi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-
noyabr, mln.
AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

SAMARQAND
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020- yil
yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
%da)

TSA da eksport hajmi 295,4 mln. AQSh dollariga (17,5 %ga kamaydi) va import hajmi 1 031,3 mln. AQSh dollariga (15,2 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -735,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	272,2	36,4	235,8	20,5
Rossiya Federatsiyasi	216,8	55,3	161,6	16,3
Qozog'iston	129,0	39,9	89,1	9,7
Turkiya	123,2	26,9	96,4	9,3
Yaponiya	56,3	0,1	56,2	4,2
Germaniya	43,2	1,3	41,8	3,3
Sloveniya	30,8	0,0	30,8	2,3
Tojikiston	30,4	28,7	1,7	2,3
Ukraina	30,3	5,7	24,5	2,3
Latviya	27,3	1,2	26,2	2,1

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 83 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (20,5 %), Rossiya Federatsiyasida (16,3 %), Qozog'istonda (9,7 %), Turkiyada (9,3 %), Yaponiyada (4,2 %), Germaniyada (3,3 %) va Sloveniyada (2,3 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (30,4 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (20,9 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (15,1 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (11,9 mln. AQSh dollari), Singapur (6,8 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 25 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari)


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	227,0	324,6	272,2
Eksport	19,0	31,5	36,4
Import	208,0	293,1	235,8
Saldo	-189,1	-261,7	-199,4
Rossiya Federatsiyasi	230,4	286,3	216,8
Eksport	65,7	86,0	55,3
Import	164,7	200,3	161,6
Saldo	-99,0	-114,3	-106,3
Qozog'iston	136,3	165,8	129,0
Eksport	41,8	39,8	39,9
Import	94,5	125,9	89,1
Saldo	-52,7	-86,1	-49,2
Turkiya	135,8	170,7	123,2
Eksport	21,3	36,9	26,9
Import	114,4	133,8	96,4
Saldo	-93,1	-96,9	-69,5
Yaponiya	70,6	66,5	56,3
Eksport	0,2	2,5	0,1
Import	70,4	64,0	56,2
Saldo	-70,2	-61,5	-56,0
Germaniya	103,9	80,6	43,2
Eksport	2,3	2,2	1,3
Import	101,6	78,4	41,8
Saldo	-99,2	-76,3	-40,5
Sloveniya	21,6	12,6	30,8
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	21,6	12,6	30,8
Saldo	-21,6	-12,6	-30,8

SAMARQAND
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Tojikiston	10,3	20,9	30,4
Eksport	9,3	18,7	28,7
Import	1,1	2,2	1,7
Saldo	8,2	16,5	26,9
Ukraina	23,3	20,9	30,3
Eksport	5,2	8,5	5,7
Import	18,2	12,5	24,5
Saldo	-13,0	-4,0	-18,8
Latviya	36,2	34,9	27,3
Eksport	3,2	2,2	1,2
Import	33,0	32,7	26,2
Saldo	-29,8	-30,5	-25,0
Hindiston	29,3	20,2	27,0
Eksport	1,4	0,2	0,5
Import	27,9	20,0	26,5
Saldo	-26,6	-19,8	-26,0
Litva	17,7	16,4	24,9
Eksport	0,3	2,7	2,0
Import	17,4	13,8	22,9
Saldo	-17,1	-11,1	-20,8
Vengriya	10,6	11,6	23,4
Eksport	0,3	0,2	0,1
Import	10,3	11,4	23,3
Saldo	-10,1	-11,3	-23,1
Koreya Respublikasi	17,4	33,0	21,0
Eksport	1,0	1,0	0,5
Import	16,4	32,1	20,6
Saldo	-15,4	-31,1	-20,1

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-noyabr oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,9 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi 4,4 %ga oshgan.

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi ham 2020- yil yanvar- noyabr oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (16,7 %ga) va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,1 %ni tashkil etdi.

SAMARQAND
VILOYATI
SHAXAR VA
TUMANLARNING
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, %da)


Shahar va tumanlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, % da
Jami	1326,7	295,4	1031,3	100,0
Samarqand sh.	602,8	86,3	516,5	45,4
Kattaqo'rg'on sh.	15,8	6,3	9,5	1,2
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	18,1	9,6	8,5	1,4
Jomboy	125,6	27,9	97,8	9,5
Ishtixon	11,2	6,1	5,2	0,8
Kattaqo'rg'on	33,8	12,0	21,8	2,5
Narpay	15,9	6,7	9,2	1,2
Nurobod	33,8	1,7	32,1	2,5
Oqdaryo	38,2	17,1	21,1	2,9
Payariq	14,1	8,4	5,7	1,1
Pastdarg'om	40,2	10,6	29,6	3,0
Paxtachi	22,5	3,2	19,3	1,7
Samarqand	110,9	31,4	79,5	8,4
Toyloq	79,1	12,5	66,7	6,0
Urgut	136,4	42,9	93,5	10,3
Qo'shrabot	3,4	1,2	2,1	0,3

Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (602,8 mln. AQSH dollari) hamda Urgut (136,4 mln. AQSH dollari), Jomboy (125,6 mln. AQSH dollari), Samarqand (110,9 mln. AQSH dollari) va Toyloq (79,1 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-noyabr)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 536 tani tashkil etib, ular tomonidan 295,4 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 17,5 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96,7 %ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (46,0 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (22,2 %), turli xil tayyor buyumlar (9,4), mashinalar va transport asbob-uskunalari (9,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST
BO'YICHA
EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-
noyabr,
ulushi, %da)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	295,4	172,5	122,9	100	100	100
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	136,0	78,1	57,9	46,0	45,3	47,1
Ichimliklar va tamaki	1,2	1,1	0,1	0,4	0,6	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,8	7,2	10,6	6,0	4,2	8,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	0,3	0,1	0,1	0,2	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	6,2	2,7	3,5	2,1	1,5	2,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,0	3,3	0,7	1,3	1,9	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	65,7	30,9	34,8	22,2	17,9	28,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	26,6	20,6	6,0	9,0	11,9	4,9
Turli xil tayyor buyumlar	27,8	23,9	4,0	9,4	13,8	3,2
Xizmatlar	9,8	4,5	5,3	3,3	2,6	4,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil
yanvar-
noyabr)**

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	82,5	90,3	73,6
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	72,6	84,1	61,3
Ichimliklar va tamaki	59,7	57,5	100,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	63,0	71,9	58,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,4	8,7	1,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	10,8 m.	5,2 m.	57,9 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,3 m.	3,1 m.	104,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	134,7	106,4	176,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	110,4	116,1	94,4
Turli xil tayyor buyumlar	104,2	99,9	140,1
Xizmatlar	31,5	41,5	26,2

2020- yil yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar, mashinalar va transport asbob-uskunalari, Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar, Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda o'sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-noyabr,
%da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47,5	52,3	46,0
Ichimliklar va tamaki	0,9	0,6	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,9	7,9	6,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	2,1	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	2,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	0,5	1,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	16,5	13,6	22,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	7,0	6,7	9,0
Turli xil tayyor buyumlar	8,1	7,5	9,4
Xizmatlar	12,4	8,6	3,3


XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-noyabr)	XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
	Sabzavotlar va mevalar	108,9	64,3
	Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	15,0	193,7
	Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	4,0	127,2
	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,6	87,0
	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan Tashqari	2,3	7,5 m.
	Ichimliklar va tamaki		
	Ichimliklar	1,2	59,1
	Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	123,0
	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	13,1	63,3
	Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,8	59,1
	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1,1	47,5
	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6,2	10,8 m.
	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1,7	16,1 m.
	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,3	190,4 m.
	Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,3	2,3 m.
O'g'itlar	0,2	33,4	

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
noyabr)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	53,6	148,5
Metallidan tayyorlangan buyumlar	5,4	129,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,4	133,3
Rangli metallar	1,1	25,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	24,1	113,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,9	54,2
Aniq sohalarda uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,7	4,5 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar	0,6	94,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,3	72,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	19,2	87,2
Poyabzal	6,4	156,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va maxkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,6	17,3 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,4	128,2
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	3,8	35,0
Qurilish xizmatlari	3,2	79,2 m.
Moliyaviy xizmatlari	1,8	70,1

So'nggi ikki yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-noyabrdagi 53,3 %dan 2020- yil yanvar-noyabrda 58,4 %ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 41,6 %ni tashkil etdi.

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, %da)



2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 18,7 %), Qozog'iston (13,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (12,3 %), Tojikiston (9,7 %), Turkiya (9,1 %), Qirg'iz Respublikasi (6,4 %) va Afg'oniston (5,0 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 74,7 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 64 ta davlatdan 64 ta davlatga o'zgarishsiz qoldi.



VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-noyabr,
% da)



SAMARQAND
VILOYATINING
ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH
SUR`ATLARI
(yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	86,0	55,3	130,9	64,2	1	1
Qozog'iston	39,8	39,9	95,3	100,1	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	31,5	36,4	165,9	115,6	4	3
Tojikiston	18,7	28,7	2,0 m.	153,5	5	4
Turkiya	36,9	26,9	173,0	72,8	3	5
Qirg'iz Respublikasi	11,8	18,9	127,0	159,7	9	6
Afg'oniston	12,9	14,9	67,8	115,7	8	7
Ozabayjon	11,5	11,3	145,2	98,6	10	8
Belarus Respublikasi	7,8	7,7	137,1	98,1	13	9
Singapur	2,0	6,4	41,8	3,2 m.	24	10
Ukraina	8,5	5,7	164,1	67,6	12	11
Turkmaniston	5,8	4,4	2,9 m.	76,8	15	12
BAA	7,7	4,3	126,6	56,5	13	13
Iroq	9,5	4,3	2,5 m.	45,0	10	14
Gruziya	2,7	3,6	101,7	132,0	17	15
Misir	0,0	3,2	-	-	65	16
Eron	17,6	2,5	2,2 m.	14,3	6	17
AQSH	2,5	2,4	148,4	97,5	20	18
Litva	2,7	2,0	8,8 m.	77,1	18	19
Polsha	3,2	1,7	4,3 m.	53,0	15	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Qozog'iston		Xitoy Xalq Respublikasi		Tojikiston	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Jami eksport	86,0	55,3	39,8	39,9	31,5	36,4	18,7	28,7
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	41,2	26,4	16,0	13,1	22,8	21,4	11,7	19,6
Ichimliklar va tamaki	1,3	0,4	0,4	0,5	0,0	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,1	2,8	2,7	2,1	5,8	6,3	0,1	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,1	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,5	1,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,4	1,0	0,0	0,0	0,6	1,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	4,8	5,7	5,3	5,3	2,8	8,6	2,7	3,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,4	0,2	13,3	15,1	0,0	0,0	1,7	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	19,6	15,2	1,8	2,7	0,0	0,0	1,3	1,6
Xizmatlar	10,5	4,3	0,1	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0

VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollarida)

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 102,5 mln. AQSh dollar qiymatli 130,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 48,9 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 32,3 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 36,9 mln. AQSh dollariga teng 72,0 ming tonna sabzavot, shuningdek 28,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 25,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 34,7 %ni tashkil etdi.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI EKSPORTI
(2020- yil
yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Xitoy xalq Respublikasi (20,8 %), Rossiya Federatsiyasi (19,6 %), Qozog'iston (10,4 %) va Turkiya (9,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT
GEOGRAFIYASI
(yanvar-
noyabr)

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	22,4	22,5	14,9	26,8	21,3	20,8
Rossiya Federatsiyasi	27,7	23,9	15,8	21,7	20,1	19,6
Qozog'iston	37,2	16,0	10,6	22,4	10,7	10,4
Turkiya	38,5	24,4	16,1	7,7	10,1	9,8
Belarus Respublikasi	7,4	7,0	4,6	6,3	6,8	6,6
Ukraina	13,2	7,1	4,7	5,9	4,8	4,7
Ozərbayjon	3,6	4,2	2,8	2,8	3,6	3,5
Gruziya	7,0	2,6	1,7	3,9	3,3	3,2
Iroq	10,8	7,0	4,6	11,8	3,3	3,2
Turkmaniston	15,5	4,7	3,1	7,6	2,9	2,9
BAA	5,1	6,0	4,0	1,5	2,0	1,9
AQSH	0,7	1,9	1,3	0,7	2,0	1,9
Pokiston	1,9	1,1	0,7	0,6	1,6	1,5
Eron	8,8	6,7	4,4	1,9	1,3	1,3
Germaniya	0,6	2,0	1,3	0,4	1,2	1,2
Litva	2,2	1,9	1,2	1,0	1,2	1,2
Boshqa davlatlar	14,9	12,3	8,1	7,0	6,3	6,2

*-qiymat ifodasidan

Hudud nomi	2019- yil yanvar- noyabr	2020- yil yanvar- noyabr	Jamiga nisbatan ulushi, %da	o'zgarish sur'ati, %da
Samarqand viloyati	358,0	295,4	100	82,5
<i>shaharlar</i>				
Samarqand	105,6	86,3	29,2	81,8
Kattaqo'rg'on	7,1	6,3	2,1	89,1
<i>tumanlar</i>				
Bulung'ur	29,9	9,6	3,2	32,1
Jomboy	23,1	27,9	9,4	120,7
Ishtixon	11,4	6,1	2,1	53,2
Kattaqo'rg'on	16,1	12,0	4,1	74,7
Narpay	5,2	6,7	2,3	129,3
Nurobod	0,9	1,7	0,6	189,1
Oqdaryo	10,3	17,1	5,8	166,0
Payariq	8,8	8,4	2,8	95,3
Pastdarg'om	19,8	10,6	3,6	53,7
Paxtachi	3,6	3,2	1,1	89,3
Samarqand	30,6	31,4	10,6	102,6
Toyloq	15,7	12,5	4,2	79,3
Urgut	45,1	42,9	14,5	95,2
Qo'shrabot	1,5	1,2	0,4	80,0

SAMARQAND
VILOYATI
SHAHAR VA
TUMANLARIDA
AMALGA
OSHIRILGAN
EKSPORT HAJMI
(yanvar-
noyabr,
mln. AQSh
dollari)

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 79,2 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 26,8 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 21,3 %ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida gilamlar (30,3 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (22,6 %) va paxtadan yigirilgan ip (25,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 101 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 27 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-
noyabr,
mln. AQSh
dollari)**

Tovar nomi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Gilamlar	26,8	26,9	24,0
Paxtadan yigirilgan ip	3,3	6,0	19,8
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	19,1	22,0	17,9
Ipak va ipak mahsulotlari	5,7	8,6	9,3
Paxtadan gazlamalar	0,2	0,0	3,6
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	0,8	1,8	4,5

Mamlakatimizning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (19,5 mln. AQSh dollari – 24,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,0 mln. AQSh dollari – 16,5 %) va Turkiya (12,7 mln. AQSh dollari – 16,0%) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	21,4	24,2	19,5
Xitoy Xalq Respublikasi	3,4	6,9	13,0
Turkiya	3,1	4,7	12,7
Qirg'iz Respublikasi	7,4	8,2	10,6
Ozarbajon	3,8	5,6	5,8
Qozog'iston	4,7	3,7	3,6
Afg'oniston	5,0	3,7	3,3
Misr	0,0	0,0	3,2
Polsha	0,4	1,5	1,2
Eron	2,6	3,1	1,1
BAA	0,6	0,8	1,0
Tojikiston	1,3	1,0	0,8
Vetnam	0,0	0,0	0,7
Izroil	0,3	0,5	0,5
Italiya	0,0	0,0	0,4
Ukraina	0,3	0,4	0,4
Singapur	0,0	0,0	0,3
Turkmaniston	0,1	0,2	0,3
Maldova Respublikasi	0,0	0,0	0,2
AQSH	0,4	0,1	0,2

DAVLATLAR
KESIMIDA
TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari)

SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-noyabr)

2020- yil yanvar-noyabr oylarida import hajmi 1031,3 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 84,8 %ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (33,5 %), kimyoviy vositalar (27,5 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI
BO'YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
noyabr, ulushi,
%da)

 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 8,5 %	 Ichimliklar va tamaki - 0,0 %
 Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari - 4,1%	 Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 1,8 %
 Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar - 1,5 %	 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 27,5 %
 Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 19,6 %	 Mashinalar va transport asbob-uskunalari - 33,5 %
 Turli xil tayyor buyumlar - 3,2 %	 Xizmatlar - 0,2%

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 183,0 mln. AQSh dollariga kamaydi va 1 029,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020- yil
yanvar-noyabr)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	1 031,3	304,0	727,3	100	100	100
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	87,7	57,5	30,2	8,5	18,9	4,2
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	0,0	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	42,5	28,4	14,1	4,1	9,3	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	19,0	18,3	0,7	1,8	6,0	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	15,7	14,0	1,7	1,5	4,6	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	284,1	63,1	221,0	27,5	20,7	30,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	201,7	94,7	107,1	19,6	31,1	14,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	345,0	23,9	321,1	33,5	7,9	44,1
Turli xil tayyor buyumlar	33,3	3,8	29,5	3,2	1,3	4,1
Xizmatlar	2,1	0,2	2,0	0,2	0,1	0,3

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (31,1 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (20,7 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,9 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (44,1 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (30,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.

MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil
yanvar-
noyabr)

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-noyabrigha nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	84,8	83,8	85,2
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	99,9	125,3	72,0
Ichimliklar va tamaki	5,9 m.	-	2,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	61,2	53,2	87,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	165,4	168,7	110,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	91,2	93,0	78,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	177,2	190,8	173,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	70,6	74,8	67,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	64,1	32,8	69,0
Turli xil tayyor buyumlar	79,0	73,4	79,7
Xizmatlar	52,9	2,2 m.	49,7

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ulushi 13,5 %dan 27,5 %gacha o'sdi, ammo mashinalar va transport asbob-uskunolari 48,6 %dan 33,5 %ga, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importining ulushi esa 6,5 %dan 4,1 %ga kamaydi.

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2020- yil
yanvar-noyabr,
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,8	7,2	8,5
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,5	5,7	4,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,9	1,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,1	1,4	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	13,5	13,2	27,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	17,7	23,5	19,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	48,6	44,2	33,5
Turli xil tayyor buyumlar	1,8	3,5	3,2
Xizmatlar	0,3	0,3	0,2

**XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-noyabr
2019- yil
yanvar-
noyabr
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	31,6	129,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	30,7	109,2
Trik hayvonlar	7,1	78,6
Sabzavotlar va mevalar	4,6	83,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,7	29,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	16,0	79,7
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	10,7	39,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	5,9	59,8
Tabiiy kauchuk	5,7	152,4
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2,2	21,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	17,5	160,8
Ko'mir, koks va briketlar	1,3	2,0 m.


**XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-noyabr
2019- yil yanvar-
noyabriga
nisbatan)**

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
O'simlik moylari va yog'lari	14,7	132,2
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	1,0	16,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	211,3	2,6 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	36,7	92,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	13,7	107,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6,7	92,6
Organik kimyo moddalari	5,4	76,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	102,1	67,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	39,2	93,0
Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	22,7	59,2
Metaldan tayyorlangan buyumlar	12,4	79,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	8,4	63,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	131,5	54,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	110,0	62,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	72,1	96,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	13,5	77,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	9,1	48,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	16,7	62,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	8,0	163,1
Har xil tayyor buyumlar	5,2	94,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,5	64,1
Poyabzal	1,3	85,7
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	2,0	86,1

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga har xil oziq - ovqat mahsulotlari va preparatlar (45,6 %ga), sabzavotlar va mevalar (16,3 %ga) hamda tirik hayvonlar (21,4 %ga) importining kamayishiga ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi ko'payishiga esa, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (2,6 martaga) hamda boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (7,2 %ga) importining ko'payganligi bevosita ta'sir etgan.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 22,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (15,7 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	293,1	235,8	140,9	80,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	200,3	161,6	121,6	80,7	2	2
Turkiya	133,8	96,4	116,9	72,0	3	3
Qozog'iston	125,9	89,1	133,3	70,7	4	4
Yaponiya	64,0	56,2	91,0	87,8	6	5
Germaniya	78,4	41,8	77,2	53,3	5	6
Sloveniya	12,6	30,8	58,1	2,5 m.	15	7
Hindiston	20,0	26,5	71,6	132,6	10	8
Latviya	32,7	26,2	99,0	80,1	7	9
Ukraina	12,5	24,5	68,8	196,6	16	10
Vengriya	11,4	23,3	110,5	2,0 m.	18	11
Litva	13,8	22,9	79,4	165,8	13	12
Koreya Respublikasi	32,1	20,6	195,0	64,1	8	13
Gruziya	3,2	15,2	80,0	4,8 m.	29	14
Polsha	16,7	14,4	106,3	86,6	12	15
Eron	25,3	14,4	241,5	57,0	9	16
Niderlandiya	16,7	12,2	63,9	73,2	11	17
Turkmaniston	10,6	12,1	2,7 m.	114,5	19	18
Belarus Respublikasi	8,2	10,9	142,5	133,2	22	19
Tayland	1,4	10,8	53,2	7,8 m.	37	20

2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 76 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-noyabr,
%da)




Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Yaponiya, Germaniya va Sloveniya) jami importning 69,0 %ini tashkil qiladi, bu 711,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDA AMALGA OSHIRILGAN IMPORT HAJMI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

Hudud nomi	2019-yil yanvar-noyabr	2020-yil yanvar-noyabr	Jamiga nisbatan ulushi, % da	o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	1216,3	1031,3	100	84,8
shaharlar				
Samarqand	441,8	516,5	50,1	116,9
Kattaqo'rg'on	6,8	9,5	0,9	139,6
tumanlar				
Bulung'ur	18,8	8,5	0,8	45,2
Jomboy	180,7	97,8	9,5	54,1
Ishtixon	17,4	5,2	0,5	29,6
Kattaqo'rg'on	79,3	21,8	2,1	27,5
Narpay	16,5	9,2	0,9	55,6
Nurobod	36,6	32,1	3,1	87,8
Oqdaryo	31,2	21,1	2,0	67,6
Payariq	10,6	5,7	0,6	53,7
Pastdarg'om	48,4	29,6	2,9	61,2
Paxtachi	9,5	19,3	1,9	2,0 m.
Samarqand	115,3	79,5	7,7	68,9
Toyloq	86,4	66,7	6,5	77,2
Urgut	110,7	93,5	9,1	84,4
Qo'shrabot	0,8	2,1	0,2	2,8 m.



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

Qurilish materiallari	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	38,9	29,6	23,8
Shisha va shisha buyumlar	2,8	3,4	3,1
Asbest	2,7	8,6	0,9
Sement	2,1	3,3	0,5

**QURILISH
MATERIALLARI
IMPORTI
DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollari)

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:66-230-45-23